



**TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

VOLUME 7 / 2024

LABOR ECONOMICS

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

**LABOUR ECONOMICS AND
HUMAN CAPITAL**

scientific electronic journal

2024 yil 3-son

Volume 9, Issue 3, 2024



**МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI
VA INSON KAPITALI**
ISSN: 3030-3117



LABORECONOMICS.UZ

МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI VA INSON KAPITALI

№ 3-2024

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ**

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog‘lanish uchun telefonlar:

+998998818698

Tahririyat Kengashi raisi:**(Chairman of the Editorial Board)**

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:**(Members of the Editorial Board)**

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.
Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d., prof.
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d, prof.
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.
Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., (DSc), dots.
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:**(Community Council members)**

Bred Bodenxauzen (AQSh)
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)
Keynz Miller (AQSh)
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)
Masato Xivatari (Yaponiya)
Gerxard Feldmayer (Germaniya)
Eko Shri Margianti (Indoneziya)
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)
Rohana Ngah (Malayziya)
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)
Teguh Dartanto (Indoneziya)
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)
Muhammed Xoliq (Pokiston)
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich**Veb-administrator (Web admin):** Musayev Xurshid Sharifjonovich

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

S.B.G'oyipnazarov A.B.Xayitov G.F.Abdumalikova	<i>Labor market transformations in developing countries</i>	5-23
B.E.Mamaraximov	<i>Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va yoshlar bandligini ta'minlashning davlat siyosati</i>	24-29
J.D.Jo'rayev	<i>O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotda aholining ish bilan bandligini ta'minlash</i>	30-37
T.T.Xalikov	<i>Raqamli iqtisodiyot sharoitida bitiruvchilarni bandligini ta'minlash tizimining matematik modelini optimallashtirish</i>	38-45
T.T.Xalikov	<i>Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish</i>	46-51
F.X.Mamatova	<i>Barqaror iqtisodiy o'sishda mehnat unumdorligini oshirish yo'llari</i>	52-62

INSON KAPITALI

K.X.Abduraxmonov S.S.Ismoilov	<i>Роль стратегических инвестиций в развитие человеческого капитала в условиях цифровой трансформации банковской системы Узбекистана</i>	63-74
S.B.G'oyipnazarov T.N.Azimov	<i>Inson kapitalini raqamli rivojlanish holatini baholashning uslubiy asoslari</i>	75-88

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH

G.Q.Abduraxmonova M.Sh.Xaydarova	<i>Davlat korxonalarida inson resurslarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aralash usul yordamida baholash</i>	89-110
U.X.Abdukarimov	<i>Davlat fuqarolik xizmatchilarining salohiyatini rivojlantirish: yangi davr talabi va imkoniyatlari</i>	111-120
M.A.Qayumova	<i>Strategies for enhancing faculty motivation: evidence-based practices for higher education institutions</i>	121-131
X.A.Ortiqov G.X.Anvarova	<i>Muassasalarda yil o'rtasida shtat jadvaliga o'zgartirish kiritish tartibi</i>	132-138
M.A.Yusupova	<i>Bank sohasida sun'iy intellektni integratsiya qilish orqali mehnat tashkilotini transformatsiya qilish</i>	139-152

TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH		
Z.Dj.Adilova	<i>Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni</i>	153-162
B.K.Kusekeyev	<i>rivojlantirish istiqbollari</i>	
B.Z.Arzimatov	<i>Привлечения инвестиций в сферу туризма в</i>	163-170
	<i>Узбекистане: тенденции и события</i>	
N.O.Jumaniyozov	<i>Mintaqalararo iqtisodiy integratsiyaning</i>	171-180
	<i>O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri</i>	
K.J.Sodiqxo'jayev	<i>Moliyaviy resurslar defitsiti sharoitida xo'jalik</i>	181-187
	<i>yurituvchi subyektlarni samarali boshqaruv</i>	
	<i>strategiyasini takomillashtirish</i>	
N.S.Yuldashev	<i>O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror taraqqiyotiga</i>	188-195
	<i>xorijiy investitsiyalar ta'siri</i>	



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



ISHCHI KUCHINI TAKROR ISHLAB CHIQRISH VA YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING DAVLAT SIYOSATI

Mamaraximov Bekzod Erkinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Fundamental iqtisodiyot kafedrasini mudiri, dotsent

b.mamaraximov@tsue.uz

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a101

Annotatsiya: maqolada ishchi kuchini takror ishlab chiqarish hamda yoshlarning bandligini ta'minlash borasidagi davlat siyosati yoritishga harakat qilingan. Shuningdek, uchun bugungi kunda yoshlarni bandligini taminlash maqsadida mamlakatimiz bir necha investitsion loyihalarni amalga oshirmoqda.

Tayanch so'zlar: yoshlar ishchi kuchi bozori, yoshlar bandligini ta'minlash, ishchi kuchini takror ishlab chiqarish.

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПЕРЕРАБОТКИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ И ЗАНЯТОСТИ МОЛОДЕЖИ

Мамаракхимов Бекзод Эркинович

Ташкентский государственный экономический университет

Заведующий кафедры, доцент

Аннотация: в статье предпринята попытка уточнить государственную политику по воспроизводству рабочей силы и обеспечению занятости молодежи. Также сегодня в нашей стране реализуется несколько инвестиционных проектов в целях обеспечения занятости молодежи.

Ключевые слова: молодежный рынок труда, занятость молодежи, воспроизводство рабочей силы.

PUBLIC POLICY OF PROVIDING WORKFORCE RECYCLING AND YOUTH EMPLOYMENT

Mamarakhimov Bekzod Erkinovich

Tashkent State University of Economics

Head of the Department, associate professor

Abstract: the article tries to clarify the state policy on the reproduction of the labor force and the provision of youth employment. Also, today, our country is implementing several investment projects in order to ensure the employment of young people.

Keywords: youth labor market, employment of youth, strategy of a professional training.

Kirish

Yoshlar ishchi kuchi bozoriga kirib keluvchi asosiy oqim bo‘lib, takror ishlab chiqarishda ularni miqdor va sifat jihatdan takomillashtirish jamiyatning asosiy kelajagini belgilab beradi. Yoshlar ish bilan bandligini ta‘minlash – bu davlatning asosiy ijtimoiy masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi, chunki aynan yoshlar mamlakat kadrlar salohiyatini tashkil qiladi. Yoshlar bandligini ta‘minlash davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining dolzarb va uzoq muddatli vazifasi hisoblanadi.

Bugungi kundagi ustuvor vazifalardan biri ishchi kuchini shakllantirish va uni qayta shakllantirish muammosini hal qilishdan iboratdir. Chunki, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ko‘rsatilganidek, “har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” [1] asosiy maqsadimizdir. Shu sababli inson salohiyatining raqobatbardoshligini oshirish ko‘p jihatdan yoshlar mehnatidan foydalanish sohasidagi milliy strategiyaga bog‘liqdir. Ishchi kuchi bozoridagi yoshlar holatini baholash zarurati yoshlar – bu mamlakat kelajagi ekanligi va butun jamiyatning istiqboldagi rivojlanishi ular faoliyatining boshlang‘ich sharoitlariga bog‘liqligi bilan belgilanadi. Bugungi yoshlar ko‘p jihatdan jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda, yoshlar ishga joylashishda katta qiyinchiliklarga uchrayotgan ijtimoiy nochor toifalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Shu kunga qadar mazkur tadqiqot bo‘yicha xorijiy va mamlakatimiz olimlari tomonidan juda ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Q.Abdurahmonovning fikricha, yaratilayotgan yangi ish o‘rinlari ham, ishdan bo‘shagan ishchi-xodimlar ham mehnat bozorining qonunlari asosida mos ravishda ishchi yoki ish o‘rniga ega bo‘lishi mumkin [4].

K.Z.Xomitov o‘zining tadqiqotlarida yoshlarni ish bilan ta‘minlashning zamonaviy turlari va vositalarini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, ishsiz yoshlarni kasbga yo‘naltirish, tayyorlash va qayta tayyorlashning muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ochib berilgan [5].

M.B.Tursunov tomonidan yoshlarning ish bilan bandligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ahamiyati, rivojlangan mamlakatlarda tajribasi, uni amalga oshirish usullari va vositalari nazariy jihatdan yoritilgan [6].

M.Mirzakarimova tomonidan ishga joylashtirish, yoshlar bandligi – bu davlat ahamiyatiga molik masala ekanligi, chunki aynan yoshlar mamlakat kadrlar salohiyatini tashkil qilishi, yoshlar bandligini ta‘minlash davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining dolzarb va uzoq muddatli vazifasi ekanligi alohida ta‘kidlangan [7].

Tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ma‘lumotlarni guruhlash, analiz va tizimli tahlil, taqqoslash hamda ekspert baholash usullaridan unumli

foydalanildi. Bundan tashqari, monografik kuzatuv va uning natijalari tahlili oʻrganilgan.

Tahlil va natijalar

Yoshlar ishchi kuchi bozorida munosabatga kirishar ekanlar, oʻzlari uchun maqbul ish topish, ish joyi, shart-sharoitlari, kasb-kori, nufuzi, mehnat jarayonining intensivligi, davomiyligi bilan bogʻliq ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy muammolarga duch keladi. Hozirgi yoshlarning jamiyatda oʻz oʻrnini topishlari, ishchi kuchi bozori talablariga javob berishga tayyor ekanliklari oʻziga xos xususiyatlarga egadir.

Ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, ishlab chiqarishga eng zamonaviy texnologiyalar joriy etilayotgan bugungi kunda ishchi kuchi maʼlumoti va malakasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda yoshlar bandligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan «Aholi bandligi toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 10 dan ziyod Farmon va qarorlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 40 dan ortiq qarorlari qabul qilingan. Xalqaro Mehnat Tashkilotining 4 ta Konvensiyasi va 1 ta bayonnomasi ratifikatsiya qilingan.

Mamlakatimiz Prezidenti aytganlaridek, yoshlar bandligini taʼminlash, yangi ish oʻrinlarini yaratish boʻyicha mahallabay rejalar ishlab chiqish lozim. Mamlakatimizda ishsizlik darajasi hamon yuqori boʻlib, iqtisodiy faol aholi orasida 9,4 foizni, yoshlar orasida 14,9 foizni tashkil etmoqda. Norasmiy sektorda mehnat qilayotgan shaxslarning 38,4 foizini hamda Oʻzbekiston Respublikasidan tashqarida mehnat qilayotgan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarining 46,1 foizini yoshlar tashkil etmoqda. [2]

Mamlakatimizda ishchi kuchini takror ishlab chiqarish borasida yoshlarni «Future Skills Uzbekistan» va «Bir million dasturchi» loyihalari doirasida IT kasblariga hamda «Yoshlar 1+1» va «Tadbirkor ayol» loyihasi doirasida tadbirkorlik koʻnikmalari va xorijiy tillar boʻyicha oʻqitishga jalb qilinmoqda.

Ishchi kasblar boʻyicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, yoshlar va xotin-qizlarda zamonaviy kasb va tadbirkorlik koʻnikmalarini shakllantirish maqsadida vazirlik tasarrufida 16 ta «Ishga marhamat», band boʻlmagan aholiga xizmat koʻrsatuvchi «Monomarkaz», 59 ta tuman va shahar kasb-hunarga oʻqitish markazlari, 136 ta mahallada kasb-hunarga oʻqitish maskanlari faoliyati yoʻlga qoʻyilgan [12].

Tadqiqotlar shuni koʻrsatmoqdaki, yuqori malakaga ega boʻlgan kadrlar ishchi kuchi bozorida yuqori imkoniyatga ega boʻladilar. Shu bilan birga, statistik maʼlumotlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ishsizlarning asosiy qismini malakasi va bilim darajasi past boʻlgan ishchi kuchi tashkil etadi.

Mamlakatimizda **“Yoshlar: 1+1” dasturi** doirasida ishsiz va uyushmagan yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka oʻqitish tashkil etilmoqda. “Yoshlar: 1+1” dasturi doirasida ishsiz va uyushmagan yoshlarni kasb-hunar va

tadbirkorlikka o‘qitish tashkil etilmoqda. «Har bir tadbirkor – yoshlarga madadkor» tamoyili asosida 1 nafar tadbirkorga 1 nafardan ishsiz yoshni biriktirish tashabbusi ko‘plab tadbirkorlarimiz tomonidan faol qo‘llab-quvvatlandi. Ushbu dastur doirasida 2021 yilda kamida 500 ming nafar yoshlar ish bilan ta‘minlardi. [9]

“Hunarli kishi xor bo‘lmas”, deydi xalqimiz. Lekin mamlakatimizda keyingi vaqtlarda yoshlarimizning mohir hunarmandlar qo‘lida kasb-hunar o‘rganishiga yetarli e‘tibor berilmayapti. Vaholanki, ustoz ko‘rgan shogird sifatida yoshlarimiz ustoziga munosib bo‘lishga intiladi, ularning ko‘magi bilan hayotda o‘z o‘rnini topadi. Shu sababli, barcha hududlarda “ustoz-shogird” an‘analarini kuchaytirish lozim. Bu hunarmand ustalarni moddiy rag‘batlantirish maqsadida Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasidan ajratiladigan mablag‘larni tizimli tarzda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Ushbu yoshlarning ish bilan bandligini ta‘minlash maqsadida erkin iqtisodiy zonalar bo‘yicha mavjud tajriba asosida, hududlarda Yoshlar kichik sanoat zonalarini tashkil etildi. Bu sanoat zonalarida o‘tib kelayotgan avlod vakillarining biznes loyihalari joylashtirilishi ko‘zda tutilgan.

Hozirgi vaqtda yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun qator imkoniyatlar taqdim etilmoqda. Ulardan biri – bu yoshlarning investision tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish uchun taqdim etilayotgan imtiyozli kreditlardir. [11]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5088-sonli qaroriga muvofiq, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini hamda Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etiladi.

Ushbu Sanoat zonalarida «startaplar» tashkil etish, yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlashi va yuritishlari, shu jumladan, innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish va natijalarini tijoratlashtirish, yirik sanoat korxonalarini bilan kooperatsiya aloqalarini o‘rnatish uchun barcha sharoitlar ta‘minlanadi.

Ma‘lumki, 2023-yil 11-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida "Yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish hamda ular bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to‘g‘risida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Unda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash yuzasidan har bir hududda ishsiz hamda ishchi kuchi bozoriga kirib kelayotgan yoshlar bandligiga ko‘maklashish maqsadida hududiy hokimliklar, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi hamda Yoshlar siyosati va sport vazirliklarining hududiy boshqarmalari bilan hamkorlikda “Yoshlar bandligi dasturlari” ishlab chiqilib, tasdiqlandi [12].

“Yoshlar bandligi dasturlari” doirasida 2023-yilda 686314 nafar yoshlarning bandligiga ko'maklashildi.

Prezidentimiz tomonidan 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni imzolandi. [13]

Unga ko‘ra, ishchi kuchini takror ishlab chiqarish alohida e‘tibor talab etiladigan, shuningdek, iste‘dodli va iqtidorli yoshlar vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar hamda oliy ta‘lim tashkilotlari rahbarlariga biriktiriladi.

Biznes bilan shug‘ullanishga qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratish maqsadida quyidagilar rejalashtirilmoqda:

- oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizini yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo‘naltirish;

- respublika bosqichida saralashdan o‘tgan har bir loyihaga BHMning 1000 baravarigacha miqdordagi imtiyozli kreditlar ajratilishini nazarda tutuvchi “Yosh tadbirkor” tanlovlarini o‘tkazish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.

Kelgusida quyidagilar nazarda tutilgan:

- “Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘larini yoshlarni chet tillari va kasb-hunarga o‘qitish maqsadlariga yo‘naltirish;

- yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha “Ustoz” maxsus platformasini ishga tushirish, u orqali dastlabki bosqichda mazkur platforma orqali 250 ming nafar yoshlar qamrab olinishi ta‘minlanadi;

- yosh xotin-qizlarni zamonaviy kasblarga o‘rgatish uchun “Qizlar akademiyasi” platformasini ishga tushirish.

“Biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturi” doirasida 2024-yil yakuniga qadar kompleks qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish orqali 2 mln aholini biznesga jalb qilish va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali 5 mln aholining bandligini ta‘minlash uchun zarur sharoitlar yaratilishi ko‘zda tutilgan.

Xulosa va takliflar

Yoshlarni ishchi kuchi bozoriga mos mutaxassis sifatida takror ishlab chiqarish va kasb-hunarlarga tayyorlashni tizimli yo‘lga qo‘yish, ularni munosib ish o‘rinlari bilan ta‘minlash orqali ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolar o‘z yechimini topadi. Buning uchun davlat va nodavlat ta‘lim muassasalari hamda kasb-hunar ta‘limi markazlari faoliyat yuritmoqda.

Yoshlarning samarali ish bilan bandligini ta‘minlash va ular orasida ishsizlik darajasini kamaytirish mexanizmi respublika kambag‘allikni qisqartirish va bandlik organlari, korxonalar va tashkilotlar hamda o‘quv yurtlari tomonidan bir kelishuvga erishishdir.

Yoshlarni kichiklik vaqtidan boshlab oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kasanachilik faoliyatini amalga oshirayotgan tadbirkorlarga biriktirish va ularning kasb-korlarini o‘rganishlarini ta‘minlash, hamda ularning o‘zini-o‘zi ish bilan ta‘minlash uchun ularga

subsidiyalar yoki imtiyozlar berish orqali qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 2022 yil 28-oktabr. <https://lex.uz/ru/pdfs/6257288>
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2021-yil 28 dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vaziri N. Xusanovning «Yoshlar bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, shuningdek ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida»gi axboroti haqida” 1718-IV-son Qarori
4. Q.X.Abdurahmonov. “Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot”. Darslik. – T.: “Fan”, 2019.
5. Sh.R.Xolmo'minov va K.Z.Xomitov. Qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlashning samarali tashkiliy mexanizmlari ta'sirini aniq sotsiologik baholash // Iqtisod va moliya jurnali. 2020-yil 1-son, 86-95 betlar.
6. M.B.Tursunov. Qishloq yoshlarining ish bilan bandligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2016-yil.
7. M.Mirzakarimova. Ta'lim xizmatlari bozori va mehnat bozorini muvofiqlashtirish yoshlar bandligi omili sifatida // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2017-yil.
8. Shakarov Z. Yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish: muammo va imkoniyatlar // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2021-yil
9. <https://qalampir.uz/uz/news/yeshlar-1-1-dasturi-ishsiz-va-uyushmagan-yeshlar-kasb-%D2%B3unar-va-tadbirkorlikka-uk-itoladi-30549>
10. www.stat.uz - (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi).
11. <https://finlit.uz/uz/articles/credit/new-youth-business/>
12. <https://mehnat.uz/oz/news/yoshlar-bandligi-dasturlari>
13. <https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda yangi/uzbekiston-2030-strategiyasi-asosiy-yunalishlar>

Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13

Tashkent, Uzbekistan

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz